“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=367

2026-yil
5-son
may
ISSN 3093-8546



# Yangi O‘zbekiston sharoitida fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari

*Parizod Amirova,*
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*
*magistranti*
*e-mail: parizodamirova7@gmail.com*

***Аннотация.*** Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalalari keng tahlil qilinadi. Unda huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalarining mohiyati, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqot davomida huquqiy ta’lim, OAV, raqamli texnologiyalar va fuqarolik jamiyatining huquqiy madaniyatni rivojlantirishdagi roli o‘rganilgan. Shuningdek, mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

***Калит сўзлар.*** huquqiy ong, huquqiy madaniyat, fuqarolik jamiyati, Yangi O‘zbekiston, huquqiy ta’lim, huquqiy islohotlar

***Аннотация.*** В данной статье подробно рассматриваются вопросы повышения правового сознания и правовой культуры граждан в условиях Нового Узбекистана. Раскрываются понятия правового сознания и правовой культуры, их взаимосвязь и роль в развитии общества. В ходе исследования изучена роль правового образования, средств массовой информации, цифровых технологий и гражданского общества в формировании правовой культуры. Такжепредложеныпрактическиерекомендациипоустранениюсуществующихпроблем.

***Ключевые слова.*** правосознание, правовая культура, гражданское общество, Новый Узбекистан, правовое образование, правовые реформы

***Annotation.*** This article provides an in-depth analysis of the issues related to improving the legal awareness and legal culture of citizens in the context of New Uzbekistan. It explores the concepts of legal awareness and legal culture, their interrelation, and their role in social development. The study examines the contribution of legal education, mass media, digital technologies, and civil society to the enhancement of legal culture. Practical recommendations to overcome existing challenges are also presented.

***Keywords.*** legal consciousness, legal culture, civil society, New Uzbekistan, legal education, legal reforms

**Kirish**

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosida izchil davom etmoqda. Mazkur islohotlarning bosh maqsadi – inson qadri, uning huquq va erkinliklarini ta’minlash, demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir. Bu jarayonda fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish alohida ahamiyat kasb etadi.Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida huquqiy ong va huquqiy madaniyat nafaqat yuridik soha vakillari, balki barcha fuqarolar uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy hodisaga aylanib bormoqda. Chunki har bir shaxsning o‘z huquq va majburiyatlarini chuqur anglashi, qonunlarga hurmat bilan qarashi hamda ularga rioya etishi jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, huquqiy ong shaxsning huquqiy bilimlari, tasavvurlari va qarashlari majmuyi bo‘lsa, huquqiy madaniyat esa ana shu bilimlarning amaliy faoliyatda ifodalanish darajasini aks ettiradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularni himoya qilishning samarali mexanizmlari mustahkamlanmoqda. Konstitutsiyada inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirishda muhim normativ asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Globallashuv jarayonlari va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi fuqarolarning huquqiy madaniyatiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Endilikda nafaqat an’anaviy huquqiy bilimlar, balki raqamli huquqiy savodxonlik ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa aholining huquqiy ongini oshirishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat masalalari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, H. Kelsen huquqni normativ tizim sifatida talqin qilib, uning samarali amal qilishi jamiyat a’zolarining huquqiy ong darajasiga bevosita bog‘liqligini ta’kidlaydi. O‘zbek huquqshunos olimlari, jumladan Zafarjon Islomov huquqiy madaniyatni jamiyatning umumiy madaniy rivojlanish darajasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganadi.Shu bilan birga, A. Saidov va U. Tadjixanov tomonidan yaratilgan “Huquqiy madaniyat nazariyasi” asarida huquqiy madaniyat jamiyatning huquqiy tizimi, huquqiy ong darajasi hamda huquqiy faoliyatining o‘zaro uyg‘unlashgan holati sifatida talqin etiladi. Ularning fikricha, huquqiy madaniyat nafaqat huquqiy bilimlar majmui, balki shaxsning huquqiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati va ularni amaliyotda qo‘llash darajasini ham ifodalaydi. Bu yondashuv huquqiy madaniyatni kompleks ijtimoiy hodisa sifatida baholash imkonini beradi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlarda ham inson huquqlarini ta’minlash va huquqiy madaniyatni rivojlantirish masalalari alohida e’tibor markazida turadi. Bu esa milliy huquqiy tizimni rivojlantirishda xalqaro tajribani hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi sharoitda fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish nafaqat huquqiy tizimni takomillashtirish, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, korrupsiya va huquqbuzarliklarning oldini olishda ham muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi Yangi O‘zbekiston sharoitida fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash va ularni ilmiy jihatdan asoslashdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalarining nazariy asoslarini tahlil qilish;

Yangi O‘zbekistonda ushbu sohadagi islohotlarning mohiyatini o‘rganish;

huquqiy madaniyatni oshirishning samarali yo‘nalishlarini aniqlash;

amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda huquqiy ong va huquqiy madaniyat masalalari Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi doirasida kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi hamda zamonaviy sharoitga mos ustuvor yo‘nalishlar taklif etiladi.

**Adabiyotlar tahlili**

Fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish masalalari yuridik fanlarda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo yuzasidan xorijiy va milliy olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular huquqiy ong va huquqiy madaniyatning mazmuni, tarkibiy tuzilishi hamda jamiyat hayotidagi o‘rnini turlicha talqin etadi.

Xorijiy huquqshunoslik fanida huquqiy ong tushunchasi chuqur nazariy asoslangan. Xususan, H. Kelsen o‘zining “Sof huquq nazariyasi”da huquqni normativ tizim sifatida talqin qilib, uning samarali amal qilishi jamiyat a’zolarining huquqiy ong darajasiga bevosita bog‘liqligini asoslab beradi [3]. Uning fikricha, huquqiy tartibning barqarorligi fuqarolarning qonunlarga ongli ravishda rioya etishiga tayanadi. Shuningdek, L. Friedman huquqiy madaniyatni jamiyatdagi huquqiy tizimga nisbatan shakllangan qadriyatlar, ijtimoiy kutishlar va munosabatlar yig‘indisi sifatida izohlaydi [4]. Bu yondashuv huquqiy madaniyatni faqat bilim darajasi bilan emas, balki jamiyatning umumiy huquqiy muhitini belgilovchi omil sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Milliy huquqshunoslik fanida ham mazkur masalaga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Z. Islomov huquqiy ongni shaxsning huquqiy borliqni anglash shakli sifatida talqin qilib, uning tarkibiy

elementlari sifatida huquqiy bilim, huquqiy his-tuyg‘u va huquqiy xulq-atvorni ajratib ko‘rsatadi [5]. Olim huquqiy madaniyatni esa jamiyat taraqqiyotining muhim mezoni sifatida baholaydi.

A. Saidov va U. Tadjixanov tomonidan yaratilgan “Huquqiy madaniyat nazariyasi” asarida huquqiy madaniyat kompleks ijtimoiy hodisa sifatida yoritilgan. Unga ko‘ra, huquqiy madaniyat jamiyatning huquqiy tizimi, huquqiy ong darajasi va huquqiy faoliyatining o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadi [6]. Mualliflar huquqiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari sifatida huquqiy bilimlar, huquqiy qadriyatlar va huquqiy xulq-atvorni ko‘rsatadi.

Shuningdek, A. Saidov o‘z tadqiqotlarida huquqiy madaniyatni inson huquqlarini ta’minlashning muhim omili sifatida baholab, uni fuqarolarning huquqiy faolligi va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantiruvchi vosita sifatida ko‘rsatadi [7].

Yana bir muhim yondashuv X. Odilqoriyev tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u huquqiy davlat qurish jarayonida huquqiy madaniyatni asosiy omillardan biri sifatida baholaydi. Olimning fikricha, huquqiy madaniyatning yuqori darajasi jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi [8].

Bundan tashqari, A. Qodirov huquqiy madaniyatni jamiyatning ma’naviy rivojlanishi bilan bog‘liq holda o‘rganib, uning ijtimoiy ong shakllari bilan uzviy aloqadorligini asoslab beradi [9].

Xalqaro tashkilotlar doirasida ham huquqiy madaniyat va huquqiy ong masalalari muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan hujjatlarda inson huquqlarini ta’minlash va huquqiy madaniyatni rivojlantirish davlatlarning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan [10].

Shuningdek, mamlakatimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishning normativ-huquqiy asoslari yaratilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish va ularning huquqlarini himoya qilishning asosiy kafolati hisoblanadi [1]. Va yana mamlakatimizda fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha aniq tizimli chora-tadbirlar belgilangan bo‘lib, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5618-farmoni alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur farmon bilan jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni tubdan yuksaltirish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish hamda huquqiy targ‘ibotni samarali tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Farmonda, xususan, aholining huquqiy bilimlarini oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ta’lim tizimida huquqiy fanlarni takomillashtirish hamda davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash zarurligi alohida ta’kidlanadi. Shu bilan birga, huquqiy targ‘ibotni tizimli yo‘lga qo‘yish va aholining huquqiy madaniyatini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish masalalari ham farmonda o‘z aksini topgan [2].

Mazkur normativ-huquqiy hujjat mamlakatda huquqiy davlat qurish jarayonida fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirishning konseptual asoslarini belgilab beruvchi muhim manba hisoblanadi.

Umuman olganda, tahlil etilgan ilmiy manbalar huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalarining nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilganini ko‘rsatadi. Biroq, ularni Yangi O‘zbekiston sharoitida kompleks yondashuv asosida, ayniqsa raqamli jamiyat sharoitida rivojlantirish masalalari hali ham chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

**Xulosa va tavsiyalar**

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekiston sharoitida fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish jamiyat taraqqiyotining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat nafaqat shaxsning huquqiy bilim darajasini, balki uning qonunlarga munosabati, huquqiy qadriyatlarga sodiqligi va amaliy xulq-atvorini ham ifodalaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni kompleks xususiyatga ega bo‘lib, u ta’lim tizimi, davlat siyosati, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, PF-5618-son Prezident farmoni asosida belgilangan chora-tadbirlar mamlakatda huquqiy targ‘ibot va huquqiy savodxonlikni oshirishning institutsional asoslarini yaratib berdi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash orqali huquqiy ongni shakllantirishning eng muhim huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bois, huquqiy madaniyatni yuksaltirish jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Umuman olganda, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish jarayoni tizimli va uzluksiz bo‘lib, u davlat va jamiyatning barcha institutlari hamkorligini talab etadi.

Yakunda quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Huquqiy ta’lim tizimini takomillashtirish

Maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda huquqiy fanlarni zamonaviy pedagogik metodlar asosida o‘qitishni kuchaytirish lozim.

Huquqiy targ‘ibotni raqamlashtirish

Aholining huquqiy savodxonligini oshirishda internet platformalari, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish zarur.

Davlat organlari faoliyatida ochiqlikni kengaytirish

Fuqarolarning huquqiy ongini oshirish uchun davlat organlarining shaffofligi va hisobdorligini yanada kuchaytirish muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. URL.: https://lex.uz/uz/docs/6445145.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” 2019-yil 9-yanvardagi PF–5618-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019-y., 06/19/5618/2452-son. URL.: https://lex.uz/docs/-4149765.

Kelsen H. Pure Theory of Law. – Harvard University Press, 1967. – P.112.

Friedman L.M. The Legal System: A Social Science Perspective. – New York: 1975. – P.193.

Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2019. – 245-b.

Saidov A.X., Tadjixanov U. Huquqiy madaniyat nazariyasi. – Toshkent: TDYU, 2019. – 56-b.

Saidov A.X. Inson huquqlari nazariyasi. – Toshkent, 2020. – 134-b.

Odilqoriyev X.T. Huquqiy davlat asoslari. – Toshkent, 2017. – 98-b.

Qodirov A. Huquqiy madaniyat va jamiyat. – Toshkent, 2016. – 67-b.

United Nations. Universal Declaration of Human Rights. – 1948.